


DEMOGRAFIK HOLAT

(2019 yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 2020 yil 1 yanvar holatiga 33905,8 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 650,3 ming kishiga yoki 2,0 % ga o'sdi.




Shahar qishloq aholisining jami
aholiga nisbatan ulushi, % da



○ Shahar ○ Qishloq

Erkaklar va ayollarning jami
aholiga nisbatan ulushi, % da




○ Ayollar ○ Erkaklar


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar
(yanvar-dekabr, ming kishi)

	2018 y.	2019 y.
Doimiy aholi soni,	33255,5	33905,8
Tug'ilganlar	768,5	815,9
Vafot etganlar	154,9	155,0
Aholining tabiiy o'sishi	613,6	660,9
Kelganlar	160,1	158,8
Ketganlar	174,8	169,5
Migratsiya saldosini	-14,7	-10,7
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	311,4	310,9
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	32,3	31,4
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
tug'ilish	23,3	24,3
o'lim	4,7	4,6
aholining tabiiy o'sishi	18,6	19,7
tuzilgan nikohlar	9,4	9,3
nikohdan ajralishlar	1,0	0,9

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(1 yanvar holatiga)




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining
2019 yilga nisbatan o'sish sur'ati
(2020 yil 1 yanvar holatiga, % da)




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi zichligi

(2020 yil 1 yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2020 yil 1 yanvar holatiga; respublika jami aholisiga nisbatan, % da)




Respublika hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 yil 1 yanvar holatiga hududlarning respublika jami aholisi sonidagi ulushi bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Samarqand viloyatida 11,4 % ni tashkil etib, keyingi o'rinlarda Farg'ona viloyatida 11,1 % ni, Qashqadaryo viloyatida 9,7 % ni va Andijon viloyatida 9,2 % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yil 1 yanvar holatiga Respublika doimiy aholisi sonining 30,5 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,9 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,6 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Doimiy aholi sonining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi

(2020 yil yanvar holatiga; jamiga nisbatan, % da)




Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 815,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,3 promilleni tashkil etdi hamda 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,0 promillega oshganligi kuzatildi (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 23,3 promille bo'lgan).

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti
(2019 yil yanvar-dekabr)




***Ma'lumot uchun:** Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(2019 yil oylar bo'yicha)



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(yanvar-dekabr)




Tug'ilganlar sonining tug'ilish tartibi bo'yicha taqsimlanishi,%




Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 155,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega tushganligi (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 4,7 promille bo'lgan) kuzatildi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha vafot etganlar soni
(2019 yil oylar bo'yicha)




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti
(2019 yil yanvar-dekabr)




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha vafot etganlar soni
(yanvar-dekabr)



Vafot etganlarning asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan, %)




Hududlar kesimida go'daklar o'limi koeffitsiyenti
(2019 yil yanvar-dekabr holatiga; 1000 tirik tug'ilganga nisbatan)




2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,3 % - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,0 % - o'simtalardan, 6,3 % - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,5 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,2 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 % - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 12,3 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 7,4 ming nafarni tashkil etib, ularning 58,5 % - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 18,7 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,8 % - tug'ma anomaliyalardan, 2,7 % - yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 1,9 % - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,8 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 5,6 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2019 yil yanvar-dekabr holatiga; jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



**Hududlar kesimida asosiy o'lim sabablari bo'yicha
vafot etganlarning taqsimlanishi**
(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



O'lim koeffitsiyentlari to'g'risida ma'lumot
(2019 yil yanvar-dekabr)



Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 660,9 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 47,3 ming kishiga (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 613,6 ming kishi bo'lgan) o'sgan.

Tabiiy o'sish — 660,9 ming kishi



Nikoh. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 310,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,3 promilleni tashkil etdi.

2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli kamayish Samarqand (3,4 %), Xorazm (1,5 %), Farg'ona (1,4 %), Qashqadaryo (1,3 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (1,3 %) kuzatildi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar-dekabr)




Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 31,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli kamayish Andijon viloyati (12,0 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (7,5 %), Samarqand (6,9 %) va Navoiy (5,5 %) viloyatlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar
va nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti**
(2019 yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nikohdan
ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot**
(yanvar-dekabr)



Migratsiya. 2019 yil yanvar-dekabr oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 158,8 ming kishini (156,3 ming kishi respublika hududlaridan, 2,5 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 169,5 ming kishini (156,3 ming kishi respublika hududlariga, 13,2 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 10,7 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 14,7 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi

(ming kishi)

	2018yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	160,1	158,8
Ko'chib ketganlar	174,8	169,5
Migratsiya saldosini	-14,7	-10,7

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Qashqadaryo (minus 6,9 ming kishi), Samarqand (minus 5,6 ming kishi), Toshkent (minus 4,6) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (minus 4,2 ming kishi) qayd etildi.


Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Toshkent shahrida (plus 27,0 ming kishi) kuzatildi.

XORIJIY MIGRATSIYA

O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-dekabr oylarida, jami xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarga nisbatan, %da)


Doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar soni 2527 kishi



O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

(2019 yil yanvar-dekabr oylarida, jami xorijga ko'chib ketganlarga nisbatan, %da)

Doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni 13246 kishi



Hududlar kesimida xorijiy migratsiya
(2019 yil yanvar-dekabr holatiga, kishi)

	Xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar soni	Xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar soni	Migratsiya saldosi
O'zbekiston Respublikasi	2527	13246	-10719
Qoraqalpog'iston Respublikasi	210	3606	-3396
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	22	107	-85
Buxoro	19	119	-100
Jizzax	61	205	-144
Qashqadaryo	15	113	-98
Navoiy	122	1356	-1234
Namangan	60	126	-66
Samarqand	97	398	-301
Surxondaryo	3	49	-46
Sirdaryo	181	263	-82
Toshkent	775	3087	-2312
Farg'ona	344	290	54
Xorazm	35	262	-227
Toshkent sh.	583	3265	-2682



Hududlar kesimida 2019 yil yanvar-dekabr oylarida xorijiy migratsiyaning minus saldosini Qoraqalpog'iston Respublikasida -3396 kishi, Toshkent shahrida -2682 kishi, Toshkent viloyatida -2312 kishi va Navoiy viloyatida -1234 kishini tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichni qayd etdi.

Xorijiy migratsiyaning plus saldosini birgina Farg'ona viloyatida (54 kishi) kuzatildi.

**Demografiya va mehnat statistikasi
boshqarmasi**

(71) 230-80-65, 67